

## THE REPRESENTATION OF KING SOLOMON'S IMAGE IN ENGLISH AND UZBEK

**Tojiboyeva Mohinur Sherali kizi**

Senior Lecturer, Department of English Language Teaching Methodology,  
Fergana State University, PhD

E-mail address: mtojiboyeva95@gmail.com

Telephone number: +998 97 949 41 40

**Annotation:** This article is devoted to the issues of linguoculturology, with an emphasis on the linguistic verbalization of the concept “wisdom”, one of the fundamental notions of this field. In particular, phraseological units associated with the image of King Solomon were described and compared in English and Uzbek on the basis of cultural codes.

**Key words:** concept, linguoculturology, Solomon, religious-anthropomorphic code, mythological code.

**Annotatsiya:** Ushbu maqola lingvokulturologiya masalalariga bag'ishlangan bo'lib, bunda mazkur sohaning tayanch tushunchalaridan biri “donolik” konseptning tilda verballashuviga e'tibor qaratilgan. Jumladan, shoh Sulaymon obrazi bilan bog'liq frazeologik birliklar ingliz va o'zbek tillarida madaniy kodlar asosida tavsiflangan va taqqoslangan.

**Kalit so'zlar:** konsept, lingvokulturologiya, Sulaymon, diniy-antropomorfik kod, mifologik kod.

Lingvomadaniy yondashuv doirasida konsept ko'p qirrali mental shakllanish bo'lib, qadriyat, konseptual va obrazli elementlarni o'z ichiga oladi. Madaniy konseptning zamonaviy fan uchun yuqori tadqiqot potentsialiga ega bo'lgan bir qator boshqa shartli mental birliklardan tubdan farqi shundaki, konsept o'zining ko'p qirraliligiga qaramay, tasavvurdagi obyektga nisbatan qadriyat munosabatining ustunligi bilan tavsiflanadi. Tevarak olamni malakali o'rganish natijalarini uning turfa xil paradigmalari bilan umumlashtirish jarayoni, mafkura, san'at, din va shu kabi oldin o'zlashtirilgan yetakchi qadriyatlar bilan solishtirib ko'rish konseptning shakllanishida muhim rol o'ynaydi.[1,76-77] Shu jumladan, shoh Sulaymon obrazi bilan bog'liq frazeologik birliklar ingliz va o'zbek tillarida ko'plab uchratishimiz mumkin. Avvalo Sulaymon kim va u bilan bog'liq obraz qanday talqin qilinishi haqida to'xtalib o'tamiz:

Sulaymon – Qur'onda ham zikr etilgan payg'ambarlardan biri (ingliz tilida diniy-ilohiy belgilarida ham qayd etilgan) bo'lib, 13 yoshida taxtga o'tirgan. Yetuk bilimli, har bir ishda hukm chiqarishda otasidan ko'ra, u jamikiinsu jin va hayvonlari qushlar olamiga ham podshohlik qilgan. Uchar shamollar ham uning ixtiyorida bo'lib, istagan joyga bir zumda eltib qo'ygan. Sulaymon payg'ambarga berilgan mo'jizalardan biri mis bulog'i bo'lib, rivoyat qilishlaricha, undan suv o'rniga mis oqib yotar, payg'ambar izmidagi jinlar esa, o'sha misdan uning xohlagan narsasini yasab berishar ekan. Jinlarning Sulaymonga qasrlar bunyod etgani, dengiz tubidan duru javohirlar olib chiqib bergani naql etiladi. Sulaymon qushlar tilini tushunganligidan, o'z qo'l ostida bir necha xil qushlarni tarbiya qilardi. Bu qushlar orasida Hudhud (Sassiqpopishak) ham bo'lib, u bir necha vaqt g'oyib bo'lgan va Sulaymonga Sabo degan yurtdagi malika Bilqisni ko'rganligini xabarini olib keladi. Sulaymon Bilqisga maktub yo'llaydi va Sabo yurtining malikasi Bilqisni yolg'iz Allohga itoat etishga majbur qiladi.[2,213] Ingliz tilida “wisdom” konsepti bilan bog'liq diniy antroponimlar asosan shoh Sulaymon (King Solomon) obrazi bilan bog'liq holda talqin qilinadi. Ingliz madaniyatida shoh Sulaymon odil va oqil hukmdor sifatida tasvirlanib, donoligi uchun ko'klarga ko'tarilgan. Hozirgi kunda ham Sulaymonning aql-zakovatiga ishora qiladigan quyidagi iboralarni uchratishimiz mumkin:



1) Solomon's choice – ko'plab muhokama va tortishuvlardan so'ng, oxir oqibat bir tomonning foydasiga yoki boshqa tomonning zarariga olib keluvchi qaror.

Bunday qarorga kelishda odamlardan oqilona fikrlash va to'g'ri hukm chiqarish talab qilinadi: This situation has really turned into a Solomon's choice for us. Whatever we decide, someone is going to lose out.

2) as wise as Solomon – mazkur ibora qaror chiqarishda juda zukko yoki aqli raso bo'lgan insonlarga nisbatan qo'llaniladi: She is considered as wise as Solomon and has become something of a matriarch within the community.

3) have (take, require) the wisdom of Solomon – ushbu ibora kimningdir dono va adolatli hukm chiqarish qobiliyatini maqtashning bir usuli yoki qiyin vaziyatlarda shunday qobiliyatga ehtiyojni ta'kidlashda inglizxabon xalqlar orasida keng qo'llaniladi: There maybe a solution to this issue that doesn't upset some part of the community, but you'd have to have the wisdom of Solomon to find it. [3,102]

Sulaymon Qur'onda ham zikr etilgan payg'ambarlardan biri bo'lib, o'zbek tilida mazkur shaxs bilan bog'liq "Sulaymon o'ldi – devlar qutuldi" iborasi mavjud. Mazkur iboraning bugungi kundagi ma'nosi qattiqqo'l kishi ketib, hamma istagini qila olishga – o'zboshimchalikka imkoniyat tug'ilishiga ishora qiladi. [4,326]

...Нега ҳамманг иш қилмай, бекор ўтирибсанлар? Сулаймон ўлиб, девлар кутулибди-да! (Хамза, "Бой ила хизматчи")

Ushbu iborada ikkita madaniy kodni uchratishimiz mumkin: "Sulaymon" – diniy antropomorfik kod sifatida talqin etilsa, "dev" obrazi mifologik kodga misol bo'la oladi. Ertak va xalq dostonlarida devlar shoxli, dumli, benihoyat ulkan odam qiyofasida tasavvur etiladigan, ezgulikka qarshi kurashuvchi xayoliy maxluq, yovuzlik timsoli sifatida tasvirlanadi. Mifga ko'ra, Sulaymon payg'ambar o'zboshimcha devlarni bandga solib qo'ygan, Sulaymonning vafotidan so'ng ular erkin nafas olganlar.

Shuningdek, o'zbek tilida "Sulaymon g'aznasi ham chidamaydi" frazeologik birligini uchratishimiz mumkin. [5,379] Rivoyatlarga ko'ra, Sulaymon g'aroyib otlar, hashamatli saroylar, uchar gilamlar va boshqa qimmatbaho narsalarga egalik qilgan. Mazkur ibora ham uning boyligini nazarda tutib, o'zida imkoniyati bo'lishiga qaramay, hamma narsani bozordan sotib olib tirikchilik, ro'zg'or o'tkazganda har qanday boylik chidamasligini, shuning uchun ro'zg'orda tejab-tergab sarf qilish kerakligini ta'kidlaydi.

Har nimani bozordan oloversa, Sulaymon g'aznasi ham chidamaydi, jiyan. Ro'zg'orni bilish kerak. (Oybek, "Qutlug' qon")

Yuqorida har ikki tilda keltirilgan iboralar mazmunidan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, ingliz xalqi dunyoqarashida Sulaymon donolik timsoli hisoblanib, tarixiy shaxs sifatida gavlanadi. Ingliz tilida keltirilgan har uchala ibora har qanday muammoli vaziyatda "Sulaymonning donoligi" bilan yo'l tutish yechim bo'lishiga ishora qiladi. Vaholanki, o'zbek tilida Sulaymon bilan bog'liq frazeologik birliklar ko'proq "qattiqqo'llik" va "boylik" konseptlari bilan bevosita bog'lanadi va to'qima obraz sifatida tasavvur qilinadi. Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, ingliz tilida Sulaymon – diniy antropomorfik belgi, o'zbek madaniyatida "mifologik obraz" sifatida milliy mentalitetimiz va dunyoqarashimizda gavdalanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Карасик, В. И., Слышкин Г. Г. Лингвокультурный концепт как единица исследования // Методологические проблемы когнитивной лингвистики: Сборник научных трудов. Воронеж, 2001. С. 76–77.
2. Islom. Ensiklopediya: A-H/Z.Husniddinov tahriri ostida. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2003. -B.213-214
3. Oxford Dictionary of Idioms / ed. by J. Siefring. – Sec.ed. – Oxford: OUP,2004. – 340 p.



4. O'zbek tilining izohli lug'ati. A. Madvaliyev, E.Begmatov tahriri ostida.Toshkent:2006-2008 yy.
5. Shomaqsudov Sh., Dolimov S., Dolimov U. Keng uyning kelinchagi yoki o'zbek xalq matal va iboralari ensiklopediyasi. – T.: “Sharq”, 2020. –B.379.

